

JADID ZIYOLILARINING MILLIY MA'NAVIY ATIMIZDAGI AHAMIYATI

Keldiyeva Shaxnozaxon

Andijon davlat pedagogika institute "Ijtimoiy fanlar" kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutilishi, o'z milliy davlatchiligini tuzish, xalqqa ziyo tarqatish maqsadini ilgari surgan jadidlarimiz haqida bayon qilingan.

Аннотация: В статье рассказывается о создании джадидистского движения, освобождении царской России от колониального гнета, создании ее национальной государственности, развитии народа. царской России от колониального гнета. Было разъяснено о нашей деятельности, способствовавшей созданию национальной государственности и распространению ее среди народа.

Annotation: This article describes the creation of the Jadidist movement, the liberation of Tsarist Russia from the colonial oppression, the creation of its national statehood, and the development of the people. Annotation: The article describes the emergence of the Jadidist movement, the liberation of Tsarist Russia from the colonial oppression. It has been explained about our activities that promoted the goal of creating national statehood and spreading it to the people.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, chor Rossiya, Turkiston muxtoriyati, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, jadidchilik fenomeni

Ключевые слова: Модернизм, царская Россия, Туркестанская автономия, Новый Узбекистан, Третье Возрождение, феномен модернизма

Key words: Modernism, tsarist Russia, Turkestan autonomy, New Uzbekistan, Third Renaissance, phenomenon of modernism

Tarixdan shu narsa ma'lumki har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o'taydi. Bu kungi mag'lubiyat ertangi g'alabani amalga oshuvchi ozmi-ko'pmi rol o'ynaydi. Busiz jamiyat rivojini tasavvur etish qiyin¹. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning rus mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi natijasida jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Zero, jadidlar siyosiy faoliyatining negizi mustaqillik va ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Bu g'oyalar avvalambor, XIX asrning 50-70-yillarida o'zbek xalqining Rossiya tajovuziga qarshi janglarida o'z ifodasini topgan edi. Ular rus davlatining Turkiston zaminida hukmronligi o'rnatilgandan keyin ham xalqning qalbida jo'sh urib turdi. Bu hamisha o'z xalqining dardida yashagan va uning ozodligi uchun jonini tikkan jadidlarning ongi hamda qalbini chulg'ab oldi. Chunki rus davlati mintaqada milliy

¹.I.To'lak.XXasr o'zbek adabiyoti „Andijon“ 1993-yil 4-bet

davlat va qo'shinni tugatib, mustaqillikni bardob etdi. U o'zining manfaatlarini ta'minlaydigan siyosiy-ma'muriy tizimni tashkil etib, butun mintaqani yagona egasi bo'lib qoldi². Zero, u xonliklar davrida o'lkada adolatsizlik va zo'ravonlik hukm surib, xalq ommasi hamisha og'ir ahvol va azob-uqubatda yashaganligini ta'kidlab, rus davlatining Turkistonni bosib olish sababini go'yoki tub aholiga ozodlik va faravon hayot baxsh etish bilan izohlaydi. K.P.Kaufman xalqni rus hukumati atrofiga ongli ravishda jipslashishga da'vat etdi. U Rus davlatini adolatli va insonparvar sifatida o'zini esa „salohiyatli“ davlatni Turkistondagi vakili sifatida gavdalantirgan. O'lkada ruslarning tobora ko'payib borishi siyosiy jihatdan ham tub aholiga o'ta xavfli edi. Zero, ular rus davlatining mustamlakachilik va ulug' millatchilik siyosatini mustahkamlovchi omillardan biri bo'lgan. Turkiston zamini Rossiyadan keltirilgan tayyor sanoat mollari bilan to'ldirib, rus hukumati va firmalari undan ham mo'may daromadlarni qo'lga kiritdilar. Umuman olganda, rus davlati yarim asrlik vaqt ichida mahalliy xalqlarning boyliklarini imkoni boricha o'zlashtirishga hech narsadan toymadi. Xullas, Turkiston Rossiyaning xomashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi, ayovsiz talanishi va qashshoqlanishi jadidlarning ham milliy burjuaziyaning ham nafratini uyg'otdi. Bu holat ularda ona yurtning iqtisodiy mustaqilligini tiklash g'oyasi va kurashini shakllantirdi. Jadidchilik harakatlarining boshlanishi qrim-tatar xalqining farzandi Ismoilbek Gaspirali (1854-1914y) harakatlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Uning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri bir-birlaridan har jihatdan uzoqlashtirilgan turkiy xalqlarni birlashtirish, bir maqsad manziliga yo'naltirish edi. I.Gaspiralinining millat ozodligi yo'lidagi fidoiyligi tufayli ko'plar unga millatning otasi deb ta'rif bergan edilar: Gaspirali ma'rifatparvarlik qarashlarining Turkistondagi davomchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy ustozini haqida shunday degan edi; Rusiyadagi turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayrxo'shlik yo'li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa moyil bo'ldi³. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi sharoit jadidlarning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini belgilagan edi. Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash his-tuyg'ularini ham jadidlar yetakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorladi. Jadidlar sharoit ta'qazosiga ko'ra, xalqning savodini chiqarish, bilimni oshirish, milliy his-tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish uchun kurashganlar. Zero, jadidchilik harakati munosabatlarini, milliy ma'rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini o'z ichiga olgan yangi siyosiy oqim edi. Jadidchilikning fenomeni shundaki, keying uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib milliy davlatchilik qurishga urinadi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi. Uyuqdag i Sharqni uyg'otishga va harakatlanishiga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari boy madaniyati va

² Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash T.: „Universitet“ 1999-yil 9-bet

³ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T. „Ma'naviyat“ 2009-yil 8-bet

ma'naviyatini tiklashga undadi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotlardan ozod qilish,
- Shariatni isloh qilish,
- Xalqqa ma'rifat tarqatish,
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurashish,
- Buxoro va Xiva konstitutsion monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish,
- Ozod va faravon jamiyat qurish ,
- Barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish kabilar edi.

Bugungi kunda tilga olinayotgan „Yangi O'zbekiston“, „Uchinchi Renessans“ kabi iboralar bugun mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat bermoqda. Darvoqe, XIX asr oxiri XX asr boshida Sharq mamlakatlari bo'ylab yoyilgan islohotchilik harakati chor Rossiyasi tobeligidagi Turkiston o'lkasiga kirib kelgan edi. U tarix sahifalariga „jadidchilik“ vakillari „jadidlar“ nomi bilan muhrlandi. O'zbekiston 1991-yildan hozirga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar-u yozilgan talay manbaalarda jadidchilikning tub mohiyati turlicha tadqiq va tahlil qilingan va jamiyatga ta'siri hamda rivojlantirgan shaxslarning hayoti va ijodi yoritilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabr kuni O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan nutqida jadidchilik harakati to'g'risida alohida to'xtalib, jumladan shunday dedi; Ko'pchilik ziyolilar qatorida katta armon bilan o'ylayman mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoiy va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'da ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar⁴.”

Jadidlarning O'zbekiston jamiyatida xalq maorifi, bunda milliy kadrlar tarbiyalashga asosiy e'tibor berilishi zarurligini targ'ib qilishgan. Dunyo imomi-Imom Buxoriy bobomiz ta'riflaganidek, “Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas⁵” degan hadisi sharifda hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, tarqqiyot va faravonlikka, avvalo, ma'rifat orqali dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

⁴<https://xs.uz/uz/post/president-oqituvchi-va-ziyolilarga-murozhaat-qilmoqda>

⁵ <https://kknews.uz/oz/15432.html>

Mening xulosam shuki, jadidchilik harakati va jadidlar zamonaviy o'zbek jamiyati va davlatchiligi shakllanishiga juda katta hissa qo'shdilar. Ularning boy ilmiy va ijodiy merosi bugungi murakkab davrda O'zbekistonda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda o'z fikriga ega hamda fidoiy va vatanparvar avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lponlarning g'oyaviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. I.To'lak.XXasr o'zbek adabiyoti „Andijon” 1993-yil 4-bet
2. Jadidchilik:islohot,yangilanish,mustaqillik va taraqqiyot uchun kuraash T:„Universitet” 1999-yil 9-bet
3. Mahmudxo'ja Behbudiy .Tanlangan asarlar.T „Ma'naviyat” 2009-yil 8-bet
4. Zaynobiddin Abdurashidov.Kelajakni bashorat qilgan jadidlar „Ishonch” gazetasi 2021-yil 8-dekabr, 149-150-son
5. Qosimov.B Milliy uyg'onish –jasorat ,ma'rifat, fidoiylik.Toshkent.„Ma'naviyat” 2002.
6. <https://xs.uz/uz/post/president-oqituvchi-va-ziyolilarga-murozhaat-qilmoqda>
7. <https://kknews.uz/oz/15432.html>